

TIL LEKSIK QATLAMINING KENGAYISHIDA SLENGLARNING AHAMIYATI

Razzaqova Shahlo Baxtiyor qizi

SamDChTI mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17232640>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli tillar – ingliz, fransuz, rus, nemis va o'zbek tillarida slenglarning paydo bo'lishi, ularning rivojlanish omillari va leksik qatlamni boyitishdagi o'rni yoritiladi. Sleng tilning noformal shakli sifatida ijtimoiy guruhlar, texnologik taraqqiyot va madaniyat ta'sirida kengayib borayotgan qatlam ekanligi ilmiy manbalar va tilshunoslar fikrlari asosida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: sleng, leksik qatlam, ijtimoiy til, zamonaviy leksika, yoshlar tili.

Kirish.: Tilning leksik qatlamlari doimiy ravishda o'zgarib, yangilanib boradi. Bu jarayonda sleng alohida o'rinni egallaydi. Slenglar turli ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratiladi va asosan norasmiy muloqotda qo'llaniladi. Ular zamonaviy tilni boyitibgina qolmay, balki tilning ijtimoiy dinamikasini ham aks ettiradi. Ushbu maqolada slenglarning kelib chiqishi, rivojlanishiga turtki bo'lgan omillar hamda leksik qatlamdagi o'rni tahlil qilinadi. Sleng so'zining o'zi ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, dastlab 18-asrda ishlatilgan. Tilshunoslar, jumladan, J. Green (Green, 2010:12) va T. Thorne (Thorne, 2014:27) slengni norasmiy leksikaning ajralmas qismi sifatida tavsiflaydi. Fransuz tilida *argot* atamasi ishlatiladi va u ko'proq jinoyatchilar yoki ishchilar sinfi tili sifatida qaraladi (Bally, 1951:88). Nemis tilida esa *Umgangssprache* va *Jugendsprache* kabi tushunchalar orqali slenglar tavsiflanadi (Duden, 2020:103). Rus tilida sleng fenomeni XIX asr oxiridan boshlab *fenya* atamasi orqali kuzatiladi (Илѣпѣа, 1974, c. 144). O'zbek tilida esa zamonaviy slenglar asosan internet, ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar orasida shakllanmoqda.

Slenglarning kengayishiga ko'plab omillar sabab bo'ladi. Ulardan eng asosiysi – ijtimoiy guruhlarining tilga bo'lgan ehtiyojidir. Yoshlar, talabalar, musiqa, sport, texnologiya sohasida faol shaxslar tilni o'zlari uchun qulay va ijtimoiy ajralib turuvchi tarzda shakllantiradi. Texnologik taraqqiyot, xususan internet va mobil aloqa vositalari orqali axborot almashinuvi sleng so'zlarning keng tarqalishiga olib keldi. Tilshunos T. Thorne bu haqda shunday deydi: "Zamonaviy sleng madaniy signal beruvchi vositaga aylanmoqda" (Thorne, 2014:48). Haqiqatan, so'zlovchining nutqida faol ishlatiluvchi leksika uning madaniyati va ijtimoiy qatlami haqida tinglovchida yoki kitobxonda tasavvur hosil qiladi.

Ingliz tilida *ghosting*, *lit*, *no cap*, *flex* kabi slenglar ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalgan. Masalan, *ghosting* – muloqotni hech qanday izohsiz to'xtatish, *no cap* – rostdan ham degani. Fransuz tilida esa *chelou* (*louche* so'zining teskari shakli) – shubhali, g'alati degani, *meuf* (*femme* so'zining teskari shakli) – qiz degani. Nemis tilida *krass*, *geil* kabi so'zlar zo'r, ajoyib ma'nolarida ishlatiladi. Rus tilida esa *kruto*, *tyotka*, *bazaryu* kabi iboralar mavjud. O'zbek tilida esa *gap yo'q*, *otdi*, *zōr*, *kallani ishlat*, *jinnini yoqib olish* kabi ifodalar ko'proq yoshlar nutqida uchraydi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar ta'siri ostida yoshlar nutqida o'zlashgan slenglar paydo bo'lmoqda. Masalan, *pikmi* – boshqalarning, ayniqsa yigitlarning e'tiborini o'ziga tortish uchun nozlanadigan qizlarga nisbatan ishlatiladi.

O'zbek tilshunosligida keyingi davrlarda slenglarni tadqiq etishda bir qator ishlar amalga oshirilgan va olimlar turli fikrlarni bayon etgan. Jumladan, A.Umarov zamonaviy o'zbek leksikasida sleng unsurlarining yoshlar tilida faol ko'rinishda paydo bo'layotganini qayd etadi (Umarov, 2010:93). A.Mamajonov o'zbek adabiy tili normalari doirasida sleng va umumxalq tili

o'rtasidagi farqlarga e'tibor qaratadi (Mamajonov, 2007:212). Mahalliy tilshunos N.Dovlatova fikricha, o'zbek tilining leksik qatlamida yuzaga kelayotgan yangi birliklar, jumladan slenglar, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq (Dovlatova, 2019:59). O'zbek tili materiali asosida olib borilgan mazkur tadqiqotlarda slenglarning sintaktik qatlamdagi semantikasi haqida batafsil to'xtalmagan.

P.Trudgill esa til va jamiyat o'rtasidagi munosabatda slengning ijtimoiy belgilarni bildiruvchi vosita ekanini isbotlab bergan (Trudgill, 2000:101). V.Labov o'zining sotsiolingvistik tadqiqotlarida sleng ijtimoiy qatlamlarning identifikatori sifatida xizmat qilishini alohida ta'kidlaydi (Labov, 1972:184). Shuningdek, J.Dubois va uning hamkorlari zamonaviy leksikani tahlil qilishda slengni madaniy va psixologik kontekstda o'rganish zarurligini ko'rsatadi (Dubois, 2002:77). Shu nuqtai nazardan slenglarni qardosh va qardosh bo'lmagan tillararo qiyosiy tadqiq qilish ehtiyoji mavjud. Xususan, slenglarning sintaktik va morfologik xususiyatlari, ularning gap tarkibida anglatgan semantikasi asosida nokategorial belgilarini aniqlash tilshunoslikning rivojiga muhim hissa qo'shadi, degan fikrdamiz.

Tilshunos D. Crystal ta'kidlaganidek, tilning leksik tizimi o'zgaruvchan bo'lib, sleng bu jarayonning eng faol qatlamlaridan biridir (Crystal, 2019:138). Shunday ekan bugungi globallashuv davrida tillararo muloqot jarayonini osonlashtirishda turli ijtimoiy qatlam egalarining nutqiga xos bo'lgan slenglarni o'rganish davr talabi hisoblanadi.

Xulosa. Slenglar tilning tabiiy va dinamik rivojlanishining ajralmas qismidir. Ular orqali nafaqat yangi so'zlar paydo bo'ladi, balki jamiyatdagi o'zgarishlar ham tilga ko'chadi. Sleng tilni boyitadi, unga yangilik olib kiradi, ammo shu bilan birga rasmiy nutqda ehtiyotkorlik bilan qo'llanishi zarur. Slenglarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va sotsiologiya fanlari uchun ham muhimdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Bally Ch. Linguistique générale et linguistique française. – Berne: Francke, 1951. – 213 b.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: CUP, 2019. – 504 p.
3. Dovlatova N. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 198 b.
4. Dubois J. et al. Dictionnaire de linguistique. – Paris: Larousse, 2002. – 284 p.
5. Duden. Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. – Mannheim: Dudenverlag, 2020. – 1130 s.
6. Green J. Green's Dictionary of Slang. – London: Chambers, 2010. – 312 b.
7. Labov W. Sociolinguistic Patterns. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2025. – 350 p.